

О‘ЗБЕК ХАЛҚ ОГ‘ЗАКИ ИЈОДИ НАМУНАЛАРИДАН ТАЛАФФУЗЛАРИМИЗНИ ЧАХХЛАШДА ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ

Taslimboev Azizbek

2-МТА уо ‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar - Umidaxon Boltaboyeva

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining

Farg‘ona mitaqaviy filiali dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar nutq texnikasini takomillashtirishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish usullari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: saj, ichki kechinma, doston, rivoyat, ertak.

Annotatsiya. Dannaya statya predstavlyaet metodq ispolzovaniya ustnogo narodnogo tvorchestva v uluchshenii texniki rechi u studentov.

Ключевые слова: саж, внутренние переживания, дастан, сказание, сказка.

Annotation. This article depicts the methods of using of popular speaking samples in the improving of the students’ speech technics.

Key words: saj, fellings,dastan,saga,fairy.

Sahna nutqi fanining asosiy vazifalaridan biri – har bir tovush, so‘z va jumalarning talaffuzini aniq, ravon, ta’sirli, orfoepik qoidalarga javob bera oladigan bo‘lishini ta’minlashdir. So‘z san’ati o‘zining ulug‘vor yuki, mazmundorligi, ta’sirchanligi, qudrati va hikmati bilan mustahkam bo‘lishi uchun unga qaratilgan ishonch, mehr, vaqt va harakat hech qachon to‘xtamasligi kerak. Nutqni yuksak badiiyat, nafis san’at darajasiga ko‘taruvchi manbalardan biri bu – mukammal, ravon talaffuzdir. Mukammal, ravon talaffuzga erishish uchun nutq texnikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy o‘qish o‘zining dastlabki bosqichi bo‘lgan ifodali o‘qishning barcha xususiyatini o‘z tarkibiga oladi; unga kuchli his-hayajon, ichki kechinma ham qo‘shiladi. Bunday ifodali o‘qishda his-hayajon sira ishtirok etmas ekanda,degan xulosa chiqarmaslik kerak. Sababi ifodali o‘qishda ham his- hayajon bevosita ishtirok etadi. Badiiy o‘qishda his-hayajon, kechinmaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi mantiq taqazosidir.Chunki badiiy o‘qish adabiy materialni ifodali o‘qish bosqichidagiga ko‘ra chuqurroq o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liq. Shuningdek, ijrochilik mahorati ham badiiy o‘qishning eng muhim omillaridan biridir. Badiiy so‘z yuksakligiga erishish uchun bosqichma-bosqich nutq texnikasi egallab boriladi. Ayniqsa, artikulyatsiya va diksiyani rivojlantirishda tez aytishlar juda qo‘l keladi.

Biroq mashq davomida nafasga ham jiddiy e'tibor berish muhimdir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, nafas mashqlari ham uzviy olib boriladi. Buning uchun tez aytish talaffuzining sur'atiga ko'ra bir tez aytishni bir nafasda ya'ni ayniqsa sur'at tezlashtirilgan davrda bir tez aytishni 2-3 marta qaytarish kerak. Buning uchun nafas olinadigan yoki to'ldiradigan paytlar oldindan belgilab olinadi.

Xalq og'zaki ijodida; dostonlarda, ertaklarda sajlar ko'p uchraydi. Saj – deb qofiyalangan nasrga aytiladi. Shuningdek, klassik badiiy adabiyotda ham ba'zan sajlardan foydalanganligini guvohi bo'lamiz. Masalan; H.H. Niyoziyning “Boy ila hizmatchi” dramasiidagi “obiravon, bog'ichunon, shoxsupaga zebi jahon” deb boshlanuvchi saji yoki “Maysaraning ishi” komediyasidagi Mullado'st monologi tarkibidagi saj mazkur shaklning badiiy adabiyotda uchraydigan eng yaxshi namunalaridan xisoblanadi. Sahna nutqi fanida matnli mashqlarda sajlardan foydalanish talabalar uchun juda qulaylik tug'diradi. Ayniqsa nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishda sajlardan foydalanish juda yaxshi natija beradi. Talabalarda saj mashqlari bilan ishlash ularning nafaqat artikulyatsiyasi, diksiyasi, balki nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Misol tariqasida biz bir folklor matni zaminidagi mashqlar ko'rinishini olamiz va ijro etish usullari bilan tanishib chiqamiz.

Masalan: Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan.

Keyingi mashqlarimizda nafasni tejashga harakat qilamiz, nafas olamiz va har holda shoshilmay bir nafasda:

Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan,
Bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan.

Yana diafragma nafas olamiz va mashqni davom ettiramiz:

Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda, to'q ekan,
Bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan,
Qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan,

Mashqni davom ettirish maqsadida yana diafragma nafas olamiz va keyingi bo'lakni qo'shamiz:

Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan,
Bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan,
Qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan,
G'ozlar karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan.

Yuqoridagi bo'laklar alohida-alohida bajarilib, bir nafasda aytilishi kerak. Albatta bunda shoshilish yoki so'zlarni yamlab, tushunarsiz talaffuz etish, shuningdek, jismoniy siqilishga yo'l qo'ymasdan erkin ijro etish lozim. Agar ko'rsatilgan kamchiliklardan birortasi yuz bersa, darhol mashqni to'xtatib, avvalgisini mustahkamlash va shundan keyingina boshqasiga o'tish mumkin.

Quyidagi matnlar qo‘shilgunga qadar bora-bora nafas diapazoni kengaytirib boriladi, bunda talaffuz aniqligi va ovoz ravonligiga alohida e‘tibor berish lozim. Mashqni yanada kengaytiramiz:

Bor ekanda, yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan.
Bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan,
Qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan,
G‘ozlar karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan,
Baqa qaltiroq ekan, baliq yaltiroq ekan.
Yo‘lbars o‘kirar ekan, ho‘kiz bo‘kirar ekan.

Talabalarning nafas imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bu mashqlar yanada kengaytirib borilishi mumkin.

Sahna nutqi fanining nutq texnikasi bo‘limiga kiruvchi – artikulyatsiya, nafas, ovoz va orfoepiya talabalarga birinchi bosqichdayoq tushuntirib boriladi. Lekin bu bilan cheklanib qolmasdan har bir talabani mustaqil ijod qilishga o‘rgatib borish yaxshi natijalar beradi. Masalan, birinchi bosqichning birinchi yarmidayoq talabalarga artikulyatsiya va nafasni puxta egallash uchun ko‘proq tez aytishlar, maqollar va topishmoqlarga murojaat etiladi. O‘qish jarayonida talabalar o‘zlari topgan tez aytishlar, maqol va topishmoqlarni umumiy bir maqsadga yo‘naltirib imtihonda ijro qiladilar. Bu o‘z navbatida ikkinchi yarim yillikda bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalarga katta zamin yaratadi. Ya’ni talaba birinchi bosqichni tugallayotganida nutq texnikasini to‘la-to‘kis egallagan bo‘lishi kerak. Ayniqsa, mantiq, nafas, muomala va boshqa texnik emotsional vazifalarni birlashtiruvchi mashqlarni tuza olishlari talaba-rejissyor sifatida bir butun g‘oyani olib chiqa olish ko‘nikmasini mashqlar tuzishdan tarbiyalab borishlari maqsadga muvofiqdir. Har bir talaba o‘zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mashqlar tuzishi ham mumkin. Lekin guruh talabalari birgalikda ijod qilishi ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini yaqindan o‘rganishlariga, muomala, mantiq, bir-birini his qilish, sezish, ta’sirlanish xususiyatlarini o‘zlashtirish va o‘stirib borishda katta ahamiyatga egadir. Mantiq, nafas, muomala va boshqa texnik emotsional vazifalarni birlashtiruvchi mashqlarda talaffuz uchun ravon, mashq uchun qulay, turli nafas vazifalarini ishlatish uchun imkoniyat beradigan matnlar tanlanadi. Nafas mashqining bu bosqichida osondan murakkabga tomon muntazamlikka borib, quyidagi holatlarga e‘tibor biriladi:

1. Nafas o‘rni maqsadga muvofiq oldindan qat’iy belgilanadi va bu o‘rinlar mantiqqa putur yetkazmasligi kerak.
2. Ovoz hamisha jaranglab turishi kerak. Harakat vazifalari taqozo etgandagina turli ran-baranglikni qo‘llash mumkin.
3. Mashq paytida artikulyatsiya, diksiya va orfoepiya normalariga rioya qilinadi.

4. Mashq matni umuman gapirilmaydi, balki biror maqsad yoki harakat bilan aytiladi va tinglovchi bilan muomala qilinadi.

5. Mashqlar nafas bazasini kengaytirish, nafas organlarini chiniqtirish va ijrochining texnik malakasini oshirishga xizmat qilishi kerak.

Misol tariqasida quyidagi matnlarni ko'rib chiqamiz. Bunda birinchi matnda tasvirlanayotgan kishining ustidan kulish yoki kalaka qilish bo'lsa keyingilarida esa maqtash, taqqoslash, tasvirlash ko'zda tutilgan:

1. Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan. Qadim zamonlarda bir boy bo'lgan ekan. U judayam boy ekan, chuqurda achigan loy ekan, suv oqmagan soy ekan, minilmagan toy ekan. Oy yuzidagi dog' ekan, dog' bo'lmagan yog' ekan, qadam yotmagan joy ekan, ichib bo'lmas choy ekan. Bu boy mana shunaqa dong'i ketgan allambalo boy ekan.

2. Ravshanbek Zulxumorga qarasa: yasangan hurday, tishlari durday, tishlari durday, ko'zlari yulduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday muhrlangan qog'ozday yalt-yult etib o'tirardi.

3. Issiqko'lining bo'yida ola qarg'a karnaychi, qovog'ari surnaychi, baqalar nog'orachi, beshik tebratar o'yinchi, chigirtka chertar g'ichchak, sichqon olifta luchchak, chirildoq shovvoz naychi o'yin tushar ninachi, o'rgimchak dor quribdi, qo'ng'iz oh-voh uribdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi namunalari xalqning milliy an'analarini, og'zaki ijodning noyob namunalari saqlashda, unga sayqal berib xalqning o'ziga qaytarishda tarixiy folkloriy jarayonni ma'naviy tarbiya mahsuli sifatida o'rganishda o'z hissasini qo'shish bilan birga sahnaviy nutqni takomillashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo'jayeva L. – Notiqlik san'ati. - T., 1967.
2. Inomxo'jayev S. – Badiiy o'qish asoslari. - T., 1973.
3. Saricheva Ye. F. Ssenicheskoe slovo. – M., 1963.
4. Po'latov I. Sahna nutqi. – T., 1982.
5. Boltaboyeva U.M. Sahna nutqi. O'quv qo'llanma.-T., 2019.
6. Boltaboyeva U.M. Sahna nutqi. O'quv qo'llanma.-T., 2021.